

RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Berdikulova Nasiba Jo'rakulovna
Guliston davlat universiteti doktoranti

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarini boshqarishda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanishning zamonaviy yo'nalishlari, imkoniyatlari va amaliy tatbiqi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada raqamli ta'lim sharoitida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini samarali boshqarish usullari tahlil qilingan. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarning besh asosiy yo'nalishi: ma'muriy boshqaruv tizimlari, bolalar rivojlanishini monitoring qilish, ota-onalar bilan muloqot platformalari, ta'im jarayonini qo'llab-quvvatlash va xavfsizlik-nazorat tizimlari bo'yicha sistemali yondashuv keltirilgan.

KALIT SO'ZLAR: Sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, maktabgacha ta'lim, ta'lim menejmenti, elektron boshqaruv tizimlari, monitoring, bolalar rivojlanishi, raqamli portfolio, interaktiv ta'lim, ota-onalar bilan muloqot, ta'limda innovatsiya, elektron hujjat aylanishi, video nazorat tizimi, mobil ilovalar, raqamli kompetentsiya, ma'lumotlar xavfsizligi, ta'lim sifati, zamonaviy pedagogika, havfsizlik tizimlari, raqamli transformatsiya

USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE MANAGEMENT OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS IN THE CONDITIONS OF DIGITAL EDUCATION

Doctoral student of Gulistan State University

Berdikulova Nasiba Jo'rakulovna

ANNOTATION. This article considers modern trends, opportunities and practical applications of the use of artificial intelligence and digital technologies in the management of preschool educational institutions. The article also analyzes methods for effective management of preschool educational organizations in the conditions of digital education. A systematic approach is presented to five main areas of artificial intelligence and digital technologies: administrative management systems, monitoring of children's development, communication platforms with parents, support for the educational process and security and control systems.

Keywords: Artificial Intelligence, Digital Technologies, Preschool Education, Educational Management, Electronic Management Systems, Monitoring, Child Development, Digital Portfolio, Interactive Learning, Parent Communication, Educational Innovation, Digital Transformation

Kirish. Mamlakatimizda maktabgacha ta'limni davlat ta'lim tizimining birinchi pog'onasi sifatida belgilaydi. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'limni boshqarishga oid bir qator qonunlar ishlab chiqarilgan. 2017 yil 30

sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi **PF-5198 qarori, 2019 yil 8 maydagi** “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish”dagi **PQ-4312 qarorlarida** davlat va nodavlat MTMLarini rivojlantirish bo’yicha ko’rsatmalar berilgan. Asosiy maqsad, 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta’lim bilan 100% qamrab olish bo’lib, maqsadni amalga oshirish bo’yicha chora tadbirlar Davlat-xususiy sheriklik asosida yangi MTTlar ochish edi. MTT larni tizimli olib borish maqsadida Davlat ta’lim standartlari joriy etish, o’quv dasturlari va metodik ta’minotni takomillashtirish, pedagoglarning malakasini muntazam ravishda oshirib borish hamda davlat MTTlarini byudjet mablag’lari hisobidan moliyalashtirish, nodavlat MTTlari uchun imtiyozlar va rag’batlantirishlarni joriy etish, ota-onalar to’lovlarini tartibga solish va boshqalar. Bundan tashqari, raqamli ta’lim sharoitida zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarishda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar muhim o’rin tutadi. Bu texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish, ma’muriy jarayonlarni soddalashtirish va bolalar rivojlanishini samarali kuzatish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning asosiy yo’nalishlari, ma’muriy boshqaruv tizimlari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida quyidagi raqamli tizimlar qo’llaniladi:

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida barcha ma’muriy hujjatlar, buyruqlar va hisobotlar raqamli formatda yuritiladi, bu vaqt va resurslarni tejaydi. Tashkilot **moliyaviy boshqaruv dasturlarida** byudjetni rejalashtirish, xarajatlarni nazorat qilish va moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish uchun maxsus dasturlar ishlatiladi. **Kadrlar boshqaruvida esa** xodimlar ma’lumotlari, mehnat shartnomalari, ish vaqti hisobi va ish haqi hisob-kitoblari raqamli platformalarda amalga oshiriladi.

Bolalar rivojlanishini monitoring qilish maqsadida **raqamli portfolio tizimlaridan samarali foydalaniladi**. Har bir bolaning individual rivojlanishi, yutuqlari va qobiliyatlari elektron shaklda saqlanadi. Bundan tashqari, ota-onalar maxsus ilova orqali farzandlarining maktabdagi faoliyatini kuzatib borishlari mumkin.

Sun’iy intellekt asosidagi baholash vositalari bolalarning kognitiv, ijtimoiy-emotsional va jismoniy rivojlanishini tahlil qiluvchi sun’iy intellekt tizimlari tarbiyachilarga individual ta’lim rejalarini tuzishda yordam beradi.

Bundan tashqari ota-onalar bilan muloqot platformalari mavjud bo’lib **mobil ilovalar va veb-portallar** ota-onalar bilan doimiy aloqani ta’minlaydi, kundalik xabarlar, yangiliklar, tadbir e’lonlari va fotogalereyalar ulashiladi. **Video nazorat tizimlari** ham ba’zi muassasalarda ota-onalarga maxsus parollar bilan bolalarning guruh xonalaridagi faoliyatini onlayn kuzatish imkoniyati beriladi.

Ta’lim jarayonini qo’llab-quvvatlash maqsadida **interaktiv doskalar va planshetlar bilan jihozlanish** zamonaviy darslar o’tish, multimediya materiallardan foydalanish raqamli ta’lim sharoitidagi keng imkoniyatlardan biri sanaladi. Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalar uchun **ta’limiy o’yinlar va dasturlar** bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda ishlab chiqilgan raqamli ta’lim resurslaridn foydalanish muhim hisoblanadi. Mashg’ulotlar

davomida tashkil etiladign **virtual ekskursiyalar** sun'iy intellekt yordamida bolalar muzeylar, hayvonot bog'lari yoki boshqa qiziqarli joylar bilan virtual tanishishlari mumkin.

Ota-onalar uchun farzandlarining xavfsizlik va nazorat tizimlari mavjud hududda tarbiya olishlari zaruriy ehtiyoj sifatida baholanadi. Kirish eshigi oldidagi **elektron kirish-chiqish tizimi** bolalar va xodimlarning tashkilotga kirish-chiqishi elektron kartalar yoki biometrik tizimlar orqali nazorat qilinishi muassasa tomonidan qulayliklar keltirib chiqaradi. Xonalar, zallar va hovlilardagi **video kuzatuv tizimlari** xavfsizlikni ta'minlash va favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilish uchun sun'iy intellekt bilan jihozlangan kameralar o'rnatilishi har bir hodim va ota-onalarga qulaylik tug'diradi..

Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi quyidagi natijalarni beradi:

- Ma'muriy yukning kamayishi va vaqtning tejamli sarflanishi;
- Ota-onalar bilan ochiq va shaffof muloqotning ta'minlanishi;
- Bolalar rivojlanishining ob'ektiv va sistemali monitoringi;
- Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish;
- Resurslarni optimal taqsimlash va boshqarish;
- Qarorlar qabul qilishda ma'lumotlarga asoslangan yondashuv:

Maktabgacha ta'lim tashkilotini barcha zarur jihozlar va internet tarmog'i bilan to'liq ta'minlash zarur. Tashkilot pedagog xodimlar va ma'muriyat a'zolarini raqamli texnologiyalardan to'g'ri va to'liq foydalanishga o'rgatish zarur. Tashkilotdagi bolalar va ularning oilalari haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash muhim va asosiy masala hisoblanadi. Raqamli ta'lim sharoitida bolalarning ekran vaqtini me'yorida saqlash, raqamli vositalarni o'yin va tabiiy faoliyat bilan muvozanatlash kerak. Uzoq muddat foydalanish ham bolalarni sog'ligiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin.

Xulosa. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan o'rinli foydalanish zamonaviy ta'lim standartlariga javob beradi. Biroq, bu texnologiyalar bolalarning sog'lom rivojlanishi, ijodiy faoliyati va jonli muloqotni o'rnini bosa olmaydi. Muvaffaqiyat raqamli innovatsiyalar va an'anaviy pedagogik yondashuvlarning maqbul uyg'unligida yotadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ma'muriy yukni kamaytiradi, ota-onalar bilan shaffof muloqotni ta'minlaydi, bolalar rivojlanishini ob'ektiv monitoring qilish imkonini beradi va ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi. Biroq, texnik ta'minot, kadrlar tayyorligi, ma'lumotlar xavfsizligi va raqamli muvozanatni saqlash masalalari e'tiborga olinishi zarur. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishda muhim vosita bo'lsa-da, ular an'anaviy pedagogik yondashuvlar bilan muvozanatli qo'llanilishi kerak. Muvaffaqiyat raqamli innovatsiyalar va bolalarning tabiiy rivojlanishi o'rtasidagi optimal nisbatni topishda namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6168-son Farmoni. – Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-6185-son Farmoni. – Toshkent, 2023.

3. Abdullayeva Sh.A. Maktabgacha ta’lim muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2022. – 156 b.

4. Ismoilov A.Yu., Matchanov N.A. Ta’limda raqamli texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O‘qituvchi, 2023. – 224 b.

5. Karimov U.I. Maktabgacha ta’limni boshqarishda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 180 b.